

**QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.06.2020.T.111.02  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI  
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI” MILLIY  
TADQIQOT UNIVERSITETI BUXORO TABIIY RESURSLARNI  
BOSHQARISH INSTITUTI**

**RO‘ZIQULOV JASUR O‘KTAM O‘G‘LI**

**MUVAQQAT ARIQQAZGICHNI TAKOMILLASHTIRISH VA  
PARAMETRLARINI ASOSLASH**

**05.07.01 – Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya mashinalari. Qishloq xo‘jaligi va  
melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии  
(PhD) по техническим наукам**  
**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy  
(PhD) on technical sciences**

<b>Ro‘ziqulov Jasur O‘ktam o‘g‘li</b> Muvaqqat ariqqazgichni takomillashtirish va parametrlarini asoslash.....	3
<b>Рузикулов Жасур Уктам угли</b> Усовершенствование временного канавокопателя и обоснование его параметров.....	19
<b>Ruzikulov Jasur Uktam ugli</b> Improving and founding temporary ditch digging parametres.....	37
<b>E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati</b> Список опубликованных работ List of published works.....	41

**QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.06.2020.T.111.02 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI  
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI” MILLIY  
TADQIQOT UNIVERSITETI BUXORO TABIIY RESURSLARNI  
BOSHQARISH INSTITUTI**

**RO‘ZIQULOV JASUR O‘KTAM O‘G‘LI**

**MUVAQQAT ARIQQAZGICHNI TAKOMILLASHTIRISH VA  
PARAMETRLARINI ASOSLASH**

**05.07.01 – Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya mashinalari. Qishloq xo‘jaligi va  
melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/T3739 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi ([www.qmii.uz](http://www.qmii.uz)) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Imomov Shavkat Jaxonovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Musurmonov Azzam Turdiyevich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Gafforov Xasan Ravshanovich**  
texnika fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi  
huzuridagi Qishloq xo'jaligi texnikasi va  
texnologiyalarini sertifikatlash va sinash markazi**

Dissertatsiya himoyasi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti huzuridagi PhD.03/30.06.2020.T.111.02 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 180100, Qarshi sh., Mustaqillik shox ko'chasi, 225-uy. Tel.: (+99875) 221-09-23, faks: (+99875) 224-13-95, e-mail: [qmii@qmii.uz](mailto:qmii@qmii.uz)).

Dissertatsiya bilan Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 180100, Qarshi sh., Mustaqillik shox ko'chasi, 225-uy. Tel.: (+99875) 221-09-23, faks: (+99875) 224-13-95, e-mail: [qmii@qmii.uz](mailto:qmii@qmii.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2025-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ dagi № \_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**F.M.Mamatov**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash  
raisi, t.f.d., professor

**D.Sh.Chuyanov**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, t.f.d., professor

**E.U.Eshdavlratov**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash qoshidagi  
ilmiy seminar raisi, t.f.d., dotsent

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda energiyatejamkor va ish sifati yuqori bo'lgan muvaqqat ariq qazish mashinalari va qurollarini qo'llash yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda. "Dunyo miqyosida har yili 1,87 mlrd. gektardan ortiq dalalarda muvaqqat ariqlar qazilishi"ni hisobga olsak<sup>1</sup>, muvaqqat ariq qazishda, ish sifati va unumi yuqori hamda energiya-resurstejamkor mashinalar va qurollarni amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Shu jihatdan diskli pichoqlar va g'altakmola bilan takomillashtirilgan ariqqazgichlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orishda muvaqqat ariq qazish uchun energiyatejamkor texnologiyalar va ularni sifatli amalga oshiradigan muvaqqat ariq qazgichlarning yangi ilmiy-texnikaviy yechimlarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Jumladan, muvaqqat ariqqazgichlarni takomillashtirish texnologik jarayonlari va parametrlarini asoslash yo'nalishlaridagi ishlarni ko'rsatish mumkin. Bu borada, diskli pichoqlar va g'altakmola bilan takomillashtirilgan muvaqqat ariqqazgichni ishlab chiqish hamda uning texnologik jarayoni va parametrlarini asoslashga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamiz qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida mehnat va energiya sarfini kamaytirish hamda ish unumini oshirish imkonini beradigan resurstejamkor tuproqqa asosiy ishlov berish texnik vosita va qurollarni ishlab chiqish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasida, jumladan, "...qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tarmog'ini modernizatsiyalash, diversifikatsiya qilish va barqaror o'sishini qo'llab-quvvatlash uchun xususiy investitsiya kapitali oqimini ko'paytirishni nazarda tutuvchi sohada davlat ishtirokini kamaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish mexanizmlarini joriy qilish, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish, fermer xo'jaliklarida ish unumini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash..." vazifalari belgilab berilgan<sup>2</sup>. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda jumladan, qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orish uchun muvaqqat ariqlarni qazishda energiya va resurstejamkor, ish sifati va unumi yuqori muvaqqat ariqqazgichni ishlab chiqish hamda uning talablar darajasidagi ish sifatini kam energiya sarflagan holda ta'minlaydigan parametrlarini asoslash muhim vazifalardan hisoblanadi.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-son "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi Farmoni va 2019-yil 31-iyuldagi PQ-4410-son "Qishloq xo'jaligi mashinasozligini jadal rivojlantirish, agrar sektorni qishloq xo'jaligi texnikalari bilan ta'minlashni davlat tomonidan qo'llab quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga

---

<sup>1</sup> <https://icac.org>

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-son «O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida» gi Farmoni.

oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishining II. “Energetika, energiya va resurstejamkorlik” ustuvor yoʻnalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning oʻrganilganlik darajasi.** Muvaqqat ariqqazgichlar hamda diskli ish organlariga ega boʻlgan tuproqqa ishlov berish mashinalarini yaratish va ularning parametrlarini asoslash boʻyicha xorijda F.A.Jeleznyak, I.A.Loban, V.K.Jilinskiy, G.I.Palmin, A.Sadikov, B.G.Chechin, A.Z.Sapskiy, E.A.Saykonen, Y.F.Olxobskiy, V.I.Lamin, S.A.Menchikova, V.A.Kremenhuskiy, V.F.Maslov, I.A.Loshak, A.S.Gavrilov, A.A.Goldberg, T.G.Dalalyan, A.P.Shvetsov, V.P.Sannikov, V.A.Pankov, V.K.Jilinskiy, V.N.Gorn, A.Y.Kantiskiy, Sh.Sh.Verbovskiy va boshqalar tadqiqotlar olib borgan.

Respublikamizda A.Shox, N.Manabayev va F.Bahromovlar tomonidan ilmiy - tadqiqot ishlari olib borilgan.

Ammo, keltirilgan tadqiqotlarda diskli pichoqlar va gʻaltakmola bilan jihozlangan ish sifati hamda unumi yuqori, energiyatejamkor muvaqqat ariqqazgichning parametrlarini asoslash masalalari yetarli darajada oʻrganilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti “Toshkent irrigatsiya va qishloq xoʻjaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasi doirasida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi “2022-2026-yillarda Oʻzbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish boʻyicha tashkiliy chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PQ-307-sonli qarorining 7-ilovasida keltirilgan “Muvaqqat ariq qazuvchi takomillashgan qurilmani ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish” innovatsion loyihasi (2022-2023 yy.) doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** diskli pichoqlar va gʻaltakmola bilan takomillashtirilgan muvaqqat ariqqazgichning konstruksiyasi va parametrlarini asoslash orqali muvaqqat ariqqazishda energiyatejamkorlik va yuqori ish sifatini taʼminlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:** muvaqqat ariq qazadigan texnika vositalari hamda diskli yumshatkichlar va gʻaltakmolaga oid ilmiy-texnikaviy maʼlumotlar hamda shu yoʻnalishda ilgari bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini tahliliy tadqiq etish;

diskli pichoqlar va gʻaltakmola bilan takomillashtirilgan muvaqqat ariqqazgichning konstruksiyasini ishlab chiqish va uning texnologik ish jarayonini asoslash;

takomillashtirilgan muvaqqat ariqqazgichning kam energiya sarflagan holda yuqori ish sifatini taʼminlovchi parametrlarini nazariy va tajribaviy asoslash;

tajribalarni matematik rejalashtirish usulini qoʻllab muvaqqat ariqqazgich parametrlarining maqbul qiymatlarini asoslash;

maqbul parametrlarga ega boʻlgan takomillashtirilgan muvaqqat ariqqazgichni ishlab chiqish va dala sinovlarini oʻtkazish, agrotexnik, energetik iqtisodiy

ko'rsatkichlarini baholash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida muvaqqat ariq qaziladigan dalalar tuprog'ining fizik-mexanik xossalari, diskli pichoqlar hamda g'altakmola bilan takomillashtirilgan muvaqqat ariqqazgich va uning texnologik ish jarayoni olingan.

**Tadqiqotning predmeti** takomillashtirilgan muvaqqat ariqqazgich osish qurilmasi va ish organlarining parametrlarini aniqlash imkonini beradigan analitik bog'lanishlar va matematik modellar hamda uning agrotexnik va energetik ish ko'rsatkichlarini ariqqazgich parametrlari va agregat harakat tezligiga bog'liq ravishda o'zgarish qonuniyatlaridan iborat.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqot jarayonida nazariy mexanika, dehqonchilik mexanikasi, matematik statistikaning qonun va qoidalari, eksperimentlarni matematik rejalashtirish va tenzometriya usullari hamda mavjud me'yoriy hujjatlarda belgilangan usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

diskli pichoqlar va g'altakmola bilan takomillashtirilgan muvaqqat ariqqazgichning konstruksiyasi ishlab chiqilgan va texnologik ish jarayoni asoslangan;

takomillashtirilgan ariqqazgich diskli pichog'ining diametri, qalinligi va o'tkirlanish burchagi kam energiya sarflagan holda talablar darjasidagi ish sifatini ta'minlash shartidan kelib chiqib aniqlangan;

takomillashtirilgan ariqqazgich g'altakmolasi diametri, qamrov kengligi va unga beriladigan tik yuklanish qazilgan ariq tubini talablar darajasida zichlanishini hisobga olgan holda aniqlangan;

takomillashtirilgan ariqqazgichning tayanch tekisligidan osish qurilmasining pastki taqish nuqtalarigacha bo'lgan tik masofa ariqqazgichning tuproqqa belgilangan chuqurlikka botishi va uning bir tekis harakatlanishini hisobga olgan holda asoslangan;

takomillashtirilgan ariqqazgichning maqbul parametrlari uning agrotexnik va energetik ish ko'rsatkichlariga ta'sirini baholovchi regressiya tenglamalarini birgalikda yechish orqali aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

energiya va resurstejamkor, ish sifati va unumi yuqori muvaqqat ariq qazadigan takomillashtirilgan qurilma ishlab chiqilgan va parametrlari asoslangan;

ishlab chiqilgan muvaqqat ariqqazgich qo'llanilganda muvaqqat ariq sifati yaxshilanishi, mehnat unumdorligini oshishi, energiya va mehnat sarflarini kamayishi aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarini ishonchliligi.** Izlanishlarning zamonaviy usullari va vositalaridan foydalangan holda o'tkazilganligi, takomillashtirilgan muvaqqat ariqqazgichning parametrlarini nazariy jihatdan asoslashda oliy matematika, nazariy mexanikaning asosiy qoida va usullariga amal qilinganligi, tajribalar natijalariga matematik statistika usullari bilan ishlov berilganligi, nazariy va amaliy tadqiqotlar natijalarining o'zaro adekvatligi, bajarilgan tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan qurilma dala sinovlarining ijobiy natijalari va amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati takomillashtirilgan muvaqqat ariqqazgichning kam energiya sarflagan holda talab darajasidagi ish sifatini ta'minlaydigan parametrlari va texnologik ish jarayoni asoslanganligi hamda uning ishchi organlarini tuproq bilan o'zaro ta'sirlanish jarayonlarini ifodalaydigan matematik modellar va analitik bog'lanishlar olinganligi hamda olingan analitik bog'lanishlardan boshqa shunga o'xshash mashinalarning parametrlarini asoslashda qo'llash mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotlar natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan qurilma bilan agrotexnika talablari darajasida muvaqqat ariq qazilishi, yonilg'i-moylash materiallari, mehnat sarfi va foydalanish xarajatlarini kamaytirish hamda ish unumini oshirishga erishilganligidan iborat.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Muvaqqat ariqqazgichni takomillashtirish va parametrlarini asoslash bo'yicha olingan natijalar asosida:

takomillashtirilgan ariqqazgichga O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi "Intellektual mulk markazi" Davlat muassasasining foydali modelga patentlari olingan ("Disklar bilan takomillashtirilgan ariq qazish mashinasi", FAP 01573-2021 y., "Ariq qazgich mashinasi", FAP 2466-2024 y.). Natijada muvaqqat ariq qazishda ish sifati va unumini oshirish hamda energiya-materialhajmdorlikni kamaytirish imkoniyatiga ega bo'lgan qurilmaning konstruksiyasini ishlab chiqish imkoni yaratilgan;

takomillashtirilgan ariqqazgich Buxoro viloyatining Vobkent va Shofirkon tumanlari fermer xo'jaliklarida joriy etilgan (Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024-yil 7-avgustdagi 05/04-04-368-son ma'lumotnomasi). Natijada takomillashtirilgan muvaqqat ariqqazgichni qo'llash ish unumini oshirish, yonilg'i sarfini kamayishi hisobiga qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orish uchun muvaqqat ariq qazishda sarflanadigan xarajatlarni 1,25 martagacha kamayishi ta'minlangan;

takomillashtirilgan ariqqazgichni ishlab chiqarishni o'zlashtirish uchun loyiha-konstruktorlik hujjatlari (dastlabki talablar, texnik topshiriq, texnikaviy shartlar va chizmalar) «BMKB-Agromash» AJda loyihalash jarayoniga joriy etilgan ("BMKB-Agromash" AJning 2024-yil 18-iyuldagi 01-58-son ma'lumotnomasi). Natijada takomillashtirilgan muvaqqat ariqqazgichning sanoat nusxalarini ishlab chiqarish imkoni yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari jumladan, 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 2 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi "Intellektual mulk markazi" Davlat muassasasining 2 ta foydali modelga patenti olingan.


**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob,

umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 118 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obykti va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, ishning aprobatsiya natijalari, e'lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning «**Masalaning qo'yilishi va tadqiqot ishining maqsadi**» deb nomlangan birinchi bobida respublikamiz sug'orma dehqonchiligida muvaqqat ariqlarning ahamiyati, muvaqqat ariqqazgichlarning turlari, muvaqqat ariqqazgichlarni yaratish va takomillashtirish borasida olib borilgan tadqiqotlar, mavzu bo'yicha ilgari bajarilgan tadqiqotlar, disksimon ishchi organlar bo'yicha ilgari o'tkazilgan ilmiy-tadqiqot ishlari, g'altakmolali ishchi organlar bo'yicha ilgari o'tkazilgan ilmiy-tadqiqot ishlari tahlillari o'tkazilgan va takomillashtirilgan muvaqqat ariqqazgichga qo'yiladigan agrotexnik talablar hamda tadqiqotning maqsadi va vazifalari shakllantirilgan.



**1-rasm. Takomillashtirilgan ariqqazgichning konstruktiv sxemasi**

Muvaqqat ariqqazgich qurilmasi 1, rama 2, ag'dargich 3, ag'dargich old qismiga o'rnatilgan aylanuvchi yassi markaziy va yondosh disklar 4, lemex 5 hamda qazilayotgan ariq tubini zichlovchi g'altakmola 6, bosim prujinasi 7, tayanch g'ildirak 8 lardan (1-rasm) tashkil topgan bo'lib, quyidagilar uning energetik va agrotexnik ish ko'rsatkichlariga ta'sir etadigan asosiy parametrlari hisoblanadi (2-rasm): diskli pichoqning diametri  $D_p$ , m; diskli

Dissertatsiyaning «**Nazariy tadqiqotlarning natijalari**» deb nomlangan ikkinchi bobida ishlab chiqilgan takomillashtirilgan ariqqazgichning konstruktiv sxemasi va texnologik ish jarayoni hamda uning tadqiq etiladigan parametrlari, takomillashtirilgan ariqqazgich diskli pichoqning parametrlari, ariqqazgich g'altakmolasi parametrlari, diskli pichoqning, g'altakmolaning hamda ariqqazgich lemexlari va ag'dargichlarining tortishga qarshiliklari, takomillashtirilgan ariqqazgichni belgilangan chuqurlikka botib ishlashi, ariqqazgichning tortishga umumiy qarshiligini aniqlash bo'yicha olib borilgan nazariy tadqiqotlarning natijalari keltirilgan.



**2-rasm. Takomillashtirilgan ariqqazgich g'altakmolasi parametrlari**


pichoqning qalinligi  $t_p$ , m; diskli pichoqning o'tkirlanish burchagi  $i_p$ , °; g'altakmolaning diametri  $D_g$ , m; g'altakmolaning qamrov kengligi  $B_g$ , m; g'altakmolaga beriladigan tik yuklanish  $Q_g$ , N; g'altakmola bosim prujinasining taranglik kuchi  $P_p$ , N; harakat tezligi  $V$ , m/s.

**Diskli pichoqning diametrini** quyidagi ifoda bo'yicha aniqlaymiz:

$$D_p = 2(h_p + \Delta h) + d_q, \quad (1)$$

bunda  $h_p$  – diskli pichoqning tuproqqa botish chuqurligi, m;  $\Delta h$  – dala yuzasi va diskli pichoqning qopqog'i orasidagi tirqish ( $\Delta h = 50 - 70$  mm), m;  $d_q$  – disk qopqog'ining diametri, m.

$h_p = 0,20$  m,  $\Delta h = 0,05$  m va  $d_q = 0,05$  m qabul qilib, (1) ifoda bo'yicha diskli pichoqning diametri 51 sm bo'lishi lozimligini aniqlaymiz va 50 cm qabul qilamiz.



**3-rasm. Diskli pichoqlar orasidagi ko'ndalang masofani aniqlashga doir sxema**

Diskli pichoqning qalinligini uning mustahkamligi ta'minlanishi shartidan kelib chiqib 4 mm, diskli pichoqning o'tkirlanish burchagini 25° qabul qilamiz.

**Diskli pichoqlar orasidagi ko'ndalang masofani** 3-rasmda keltirilgan sxemadan foydalanib quyidagi ifoda orqali aniqlaymiz:

$$l_k = \frac{B_k}{4}. \quad (2)$$

$B_k = 80$  cm qabul qilib, (2) ifoda bo'yicha diskli pichoqlar orasidagi ko'ndalang masofa 20 cm bo'lishi lozimligini aniqlaymiz.

**Diskli pichoqlarning tuproqqa maksimal botish chuqurligini** esa quyidagi ifoda orqali aniqlaymiz:

$$h_{p\max} = l_k \cdot \operatorname{tg} \frac{2\alpha_k}{B_k - l_k}, \quad (3)$$

bunda  $b_1$  – dala yuzasi bo'yicha chetki diskdan kanal ustigacha bo'lgan ko'ndalang masofa, m.


(3) ifoda bo'yicha diskli pichoqlarning tuproqqa maksimal botish chuqurligi  $h_{p\max} = 20$  cm bo'lishi lozimligini aniqlaymiz.

**Takomillashtirilgan ariqqazgich diskli pichog'i bilan ag'dargich orasidagi bo'ylama masofani** 4-rasmda keltirilgan sxemaga asosan ag'dargich ta'sirida deformatsiyalangan tuproq zonasi diskli pichoqqa etib bormasligi shartidan kelib chiqib quyidagi ifoda orqali aniqlaymiz:

$$L_d \geq h_p \operatorname{tg}(\varepsilon_l + \varphi) + \sqrt{R_g^2 - (R_g - h_p)^2}, \quad (4)$$

bunda  $\varepsilon_l$  – lemexni ariq tubiga nisbatan o'rnatish burchagi, °.

(4) ifoda bo'yicha  $h_p = 18$  cm,  $\varepsilon_l = 34^\circ$  va  $\varphi = 25^\circ$  qabul qilgan holda o'tkazilgan hisoblar ag'dargich bilan diskli pichoqlar orasidagi bo'ylama masofa kamida 26,7 cm bo'lishi lozimligini ko'rsatdi.



**4-rasm. Diskli pichoq bilan ag'dargich orasidagi bo'ylama masofani aniqlashga doir sxema**

**G'altakmolaning diametrini** u ariqqazgichning ish jarayonida ariqning tubiga to'kilgan kesaklarni bosib o'tib kesish shartidan quyidagi ifoda bo'yicha aniqlaymiz:

$$D_{g'} \geq d_k \operatorname{ctg}^2 \frac{\varphi_1 + \varphi_2}{2}, \quad (5)$$

bunda  $d_k$  – ariqqazgichning ish jarayonida ariqning tubiga to'kilgan kesaklarning diametri, m;  $\varphi_1, \varphi_2$  – mos ravishda tuproqning tashqi va ichki, ya'ni metallga va tuproqqa ishqalanish burchaklari, °.

$d_k = 0,1$  m,  $\varphi_1 = 30^\circ$  va  $\varphi_2 = 40^\circ$  qabul qilib, (5) ifoda bo'yicha o'tkazilgan hisoblar g'altakmolaning diametri kamida 20 cm bo'lishi lozimligi aniqlandi.

G'altakmolaning qamrash kengligini ariqqazgich tomonidan ochilgan ariq tubining kengligiga teng etib qabul qilamiz, ya'ni  $B_g = 30$  cm.

**G'altakmolaga beriladigan tik yuklanishni** u ariqqazgich tomonidan qazilgan egat tubini talab darajasida zichlashi shartidan quyidagi ifoda bo'yicha aniqlaymiz:

$$Q_{g'} = \frac{1}{8} q_c (1 + kV^2) B_g \cdot D_{g'}^2 \times \left\{ \arccos \frac{D_{g'} - 2h_1 \left(1 - \frac{\rho_0}{\rho}\right)}{D_{g'}} - \frac{2 \sqrt{D_{g'} h_1 \left(1 - \frac{\rho_0}{\rho}\right) - h_1^2 \left(1 - \frac{\rho_0}{\rho}\right)^2}}{D_{g'}^2} \left( D_{g'} - 2h_1 \left(1 - \frac{\rho_0}{\rho}\right) \right) \right\}, \quad (6)$$

bunda  $h_1$  – tuproqning zichlanadigan qatlaminin qalinligi, m;  $\rho_0$  – tuproqning (ariq tubining) dastlabki, ya'ni g'altakmola bilan zichlanmasdan oldingi zichligi, g/cm<sup>3</sup>;  $\rho$  – tuproqning (ariq tubining) g'altakmola tomonidan zichlangandan keyingi zichligi, g/cm<sup>3</sup>.

(6) ifodaga  $q_c = 2 \cdot 10^6$  N/m<sup>3</sup>,  $k = 0,08$  s<sup>2</sup>/m<sup>2</sup>,  $B_g = 0,3$  m,  $D_{g'} = 0,2$  m,  $h_1 = 0,1$  m,  $\rho_0 = 1000$  kg/m<sup>3</sup>,  $\rho = 1200$  kg/m<sup>3</sup> qiymatlarni qo'yib 1,7-2,2 m/s harakat tezliklarida g'altakmolaga beriladigan tik yuklanish 461,8-520,3 N oralig'ida bo'lishi lozimligi aniqlandi.

**G'altakmola bosim prujinasining taranglik kuchini** 5-rasmda keltirilgan hisobiy sxemadan foydalanib quyidagi ifoda bo'yicha aniqlaymiz:


$$P_p = Q_{g'} - m_{g'} g, \quad (7)$$

bunda  $m_{g'}$  – g'altakmolaning massasi, kg;  $g$  – erkin tushish tezlanishi, m/s<sup>2</sup>.

Bu ifodaga  $Q_{g'} = 491,05$  N,  $m_{g'} = 13$  kg va  $g = 9,81$  m/s<sup>2</sup> qiymatlarni qo'yib, ariqqazgich g'altakmolasi bosim prujinasining taranglik kuchi 363,52 N bo'lishi lozimligini aniqlaymiz.

Diskli pichoqning tortishga qarshiligi quyidagi ifoda bo'yicha aniqlanadi:

$$P_d = q_c (1 + kV^2) \delta R_p^2 \left\{ \left[ 1 - \frac{R_p - h_p}{R_p} \left( 1 - \ln \frac{R_p - h_p}{R_p} \right) \right] + \left( f + tg \frac{i_p}{2} \right) \left( R_p - \frac{t_p - \delta}{4} \operatorname{ctg} \frac{i_p}{2} \right) \left[ R_p^2 - \left( R_p - \frac{t_p - \delta}{4} \operatorname{ctg} \frac{i_p}{2} \right)^2 \right] \right\} \times$$



5-rasm. G'altakmola bosim prujinasining taranglik kuchini aniqlashga doir sxema

$$\times \left[ 1 - \frac{R_p - h_p}{R_p - \frac{t_p - \delta}{4} \operatorname{ctg} \frac{i_p}{2}} \left( 1 - \ln \frac{R_p - h_p}{R_p - \frac{t_p - \delta}{4} \operatorname{ctg} \frac{i_p}{2}} \right) \left( \frac{1}{\cos \frac{i_p}{2}} + \frac{f}{\sin \frac{i_p}{2}} \right) \right] \quad (8)$$

G'altakmolaning tortishga qarshiligini quyidagi ifoda bo'yicha aniqlaymiz:

$$P_{g'} = \frac{1}{2} q_c (1 + kV^2) B_g h_1^2 \left( 1 - \frac{\rho_0}{\rho} \right)^2 \quad (9)$$

Takomillashtirilgan ariqqazgich lemexlari va ag'dargichlarining tortishga qarshiliklaridan tashkil topgan bo'lib, quyidagi ifoda bo'yicha aniqlaymiz:

$$P_{la} = b_k \left\{ \left\{ T t_l \frac{1}{\sin \gamma_k} + 0,5 k_s b_k (\sin \gamma_k + \cos \gamma_k) [\sin(\gamma_k + \varphi) + \sin \varphi \cos \gamma_k] + \right. \right. \\ \left. \left. + \rho a \frac{\sin(\alpha + \varphi)}{\cos \varphi} \left( \operatorname{cg} \frac{\cos^2 \alpha_k}{\sin \gamma_k} + 2V^2 \sin \alpha \sin \gamma_k \right) \right\} + 2\varepsilon F_{al} V^2 \right\} \quad (10)$$

bunda  $T$  – tuproqning qattiqligi,  $t_l$ –lemex tig'ining qalinligi,  $\gamma_k$  – lemex tig'ining harakat yo'nalishiga nisbatan o'rnatilish burchagi,  $\varphi$  – tuproqni takomillashtirilgan ariqqazgich lemexining ishchi sirtiga ishqalanish burchagi,  $\rho$  – tuproqning zichligi,  $\alpha$  –  $\operatorname{arctg}(tga_k \sin \gamma_k)$  (bunda  $\alpha_k$  – takomillashtirilgan ariqqazgich lemexining uvalanish (ariq tubiga o'rnatilish) burchagi,  $\varepsilon$  – ariqqazgich ag'dargichlarining parametrlari va geometrik shakliga bog'liq bo'lgan qarshilik koeffitsienti,  $Ns^2/m^4$ ;  $F_{al}$  – ag'dargich tomonidan ag'dariladigan palaxsaning ko'ndalang kesimi.

$n = 3$  dona,  $b_k = 0,30$  m,  $T = 1,1 \cdot 10^6$  Pa,  $t_l = 0,0005$  m,  $\beta_k = 40^\circ$ ,  $k_s = 27,5 \cdot 10^3$  Pa,  $\alpha_k = 30^\circ$ ,  $\varphi = 30^\circ$ ,  $\rho = 1200$  kg/m<sup>3</sup>,  $a = 0,27$  m,  $s = 0,14$  m,  $\varepsilon = 2000$  N s<sup>2</sup>/m<sup>4</sup>,  $\alpha = 20^\circ$ ,  $\beta = 20^\circ$  qabul qilinib, (10) ifoda bo'yicha o'tkazilgan hisoblar 6-8 km/soat harakat tezligida aylanma takomillashtirilgan ariqqazgichning tortishga qarshiligi 7933,5-8437,5 N oralig'ida bo'lishini ko'rsatdi.

**Takomillashtirilgan ariqqazgichni belgilangan chuqurlikka botib ishlashi** uchun uning tayanch g'ildiraklari doimiy ravishda dala yuzasiga bosib turilishi, ya'ni  $N_{tg} > 0$  shartidan keltirib chiqarilgan ifoda bo'yicha va qurilgan grafikka asosan takomillashtirilgan ariqqazgichning tayanch tekisligidan uning pastki osish nuqtalarigacha bo'lgan masofa kamida 65 cm bo'lishi lozimligi aniqlandi.

Takomillashtirilgan ariqqazgichning tortishga umumiy qarshiligini diskli pichoqlarning, g'altakmolaning, lemexlar va ag'dargichlarning hamda tayanch g'ildiraklarning tortishga qarshiliklarining yig'indisiga teng va uni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$P_u = P_{dm} + 2P_{dm} + P_{g'} + P_{la} + \mu_T N_{tz} \quad (11)$$


Bu ifodaga  $P_{dm}$ ,  $P_{dy}$ ,  $P_{g'}$ ,  $P_{la}$  larning yuqorida aniqlangan qiymatlarini qo'yib hamda  $\mu_T = 0,2$  va  $N_{tz} = 1$  kN qabul qilib hisoblashlar takomillashtirilgan ariqqazgichning tortishga o'rtacha umumiy qarshiligi 10309,31 N ni tashkil etishini ko'rsatdi.

Dissertatsiyaning «**Eksperimental tadqiqotlarni o'tkazish usullari va natijalari**» deb nomlangan uchinchi bobida takomillashtirilgan muvaqqat

ariqqazgichning talab darajasidagi ish sifatini ta'minlovchi parametrlarini aniqlash maqsadida o'tkazilgan bir va ko'p omilli eksperimental tadqiqotlarning natijalari keltirilgan.

Takomillashtirilgan diskli pichoq diametri, ular orasidagi ko'ndalang masofa, diskli pichoq bilan ag'dargich orasidagi bo'ylama masofa, g'altakmolaning diametri va unga beriladigan tik bosim kuchini, ariqqazgichning tayanch yuzasidan osish nuqtasigacha bo'lgan masofani tuproqning uvalanish sifati, ariq kengligi va chuqurligi hamda tortishga qarshiliklarga ta'siri o'rganildi. Ularning natijalari 6-11-rasmlarda keltirilgan.

6-rasmda keltirilgan grafik bog'liqliklardan ko'rinib turoibdiki, diskli pichoqning diametri diskli pichoqning diametri 400 mm dan 550 mm ga ortganda tuproqning uvalanish darajasi yaxshilangan, ya'ni o'lchami 50 mm kichik bo'lgan tuproq fraksiyalari ortgan va undan katta tuproq fraksiyalari kamaygan. Agregat harakat tezligi 6 km/h bo'lganda o'lchami 50 mm kichik bo'lgan tuproq fraksiyalari miqdori 78,9 % dan 81,9 % ga ortgan, o'lchami 50 mm dan kichik tuproq fraksiyalari miqdori 21,1 % dan 18,1 % ga kamaygan, 8 km/h bo'lganda ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda 79,8 % dan 83,2 % ga va 20,2 % dan 16,8 % ga o'zgargan.



1)  $V=6$  km/h bo'lganda; 2)  $V=8$  km/h bo'lganda

**6-rasm. Tuproqning uvalanish darajasi (a) va ariqqazgichning tortishga qarshiligi ( $R$ ) ni diskli pichoq diametri ( $D_p$ ) ga bog'liq ravishda o'zgarish grafiklari**

Takomillashtirilgan muvaqqat ariqqazgichning tortishga qarshiligi diskli pichoq diametri 400 mm dan 550 mm ga ortishi bilan ortgan, ya'ni agregat harakat tezligi 6 km/h bo'lganda 9,75 kN dan 10,95 kN ga, 8 km/h bo'lganda 10,15 kN dan 11,40 kN gacha ortgan.

Demak, o'tkazilgan tajribaviy tadqiqotlar asosida shuni aytish mumkinki kam energiya sariflagan holda talab darajasida ish sifatini ta'minlash uchun diskli pichoqlar diametri 450-500 mm oralig'ida bo'lishi lozim.

Takomillashtirilgan muvaqqat ariqqazgichning diskli pichoqlar orasidagi ko'ndalang masofa 15 cm dan 20 cm gacha ortganda har ikkala harakat tezligi ham ariq chuqurligi va tuproqning uvalanish darajasi ortgan. Bu masofa 20 cm dan 22,5 cm ga ortganda esa yuqoridagi ko'rsatkichlar kamaygan.


Ko'ndalang masofa ortishi bilan ariq chuqurligining o'rtacha kvadratik chetlanishi hamda qurilmaning tortishga qarshiligi oldin kamayib keyin ortgan.

Diskli pichoqlar orasidagi ko'ndalang masofa 15 cm dan 20 cm o'zgarganda

qurilmaning tortishga qarshiligi har ikkala harakat tezligida mos ravishda kamaygan, bu masofa 20 cm dan 22,5 cm o'zgariganda esa ortgan.

Demak, ariqqazgichning ish ko'rsatkichlari agrotexnik talablar darajasida bo'lishi uchun uning diskli pichoqlari orasidagi ko'ndalang masofa 17,5-20,0 cm oralig'ida bo'lishi lozim.

7-rasmda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, takomillashtirilgan muvaqqat ariqqazgich diskli pichog'i bilan ag'dargich orasidagi bo'ylama masofa 20 cm dan 35 cm gacha ortishi bilan har ikkala harakat tezligida ham tuproqning uvalanish darajasi avval ortib, keyin esa o'zgarishsiz bo'ldi, ya'ni diskli pichoq bilan ag'dargich orasidagi bo'ylama masofa 20 cm dan 25 cm gacha ortganda tuproqning uvalanish darajasi agregatning har ikkala harakat tezligida mos ravishda 76,4 % dan 82,1 % ga va 78,8 % dan 84,3 % gacha ortgan. Keyinchalik bu masofa 25 cm dan 30 cm gacha ortganda esa tuproqning uvalanish darajasi agregatning har ikkala harakat tezligida mos ravishda 82,1 % dan 83,5 % ga va 84,3 % dan 85,5 % gacha ortgan xolos. Buni diskli pichoq bilan ag'dargich orasidagi bo'ylama masofa ortishi bilan ag'dargich ta'sirida deformatsiyalangan tuproq zonasi diskli pichoqdan uzoqlashayotgani bilan izohlash mumkin.



1)  $V=6$  km/h bo'lganda; 2)  $V=8$  km/h bo'lganda

**7-rasm. Tuproqning uvalanish darajasi ( $F_{<sub>50</sub>}$ ) va ariqqazgichning tortishga qarshiligi ( $R$ ) ni diskli pichoq bilan ag'dargich orasidagi bo'ylama masofa ( $L_d$ ) ga bog'liq ravishda o'zgarish grafiqi**


Takomillashtirilgan muvaqqat ariqqazgich diskli pichog'i bilan ag'dargich orasidagi bo'ylama masofa 20 cm dan 35 cm gacha ortishi ariq chuqurligi va uning o'rtacha kvadratik chetlanishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmadi.

Diskli pichoq bilan ag'dargich orasidagi bo'ylama masofa 20 cm dan 35 cm gacha ortganda qurilmaning tortishga qarshiligi avval kamaygan keyin esa biroz ortgan. Masalan, diskli pichoq bilan ag'dargich orasidagi bo'ylama masofa 20 cm dan 30 cm gacha ortganda agregatning har ikkala harakat tezligida mos ravishda 10,71 kN dan 9,85 kN ga va 11,1 kN dan 10,29 kN ga kamaygan, keyin esa bu masofa 20 cm dan 30 cm gacha ortganda agregatning har ikkala harakat tezligida mos ravishda 9,85 kN dan 9,95 kN ga va 10,29 kN dan 10,34 kN gacha ortgan. Buni ham yuqoridagi kabi izohlash mumkin.

Demak, tuproqning uvalanish sifati agrotexnik talablar darajasida bo'lishi hamda qurilmaning tortishga qarshiligi minimal bo'lishi uchun takomillashtirilgan ariqqazgich diskli pichog'i bilan ag'dargich orasidagi bo'ylama masofa 25-30 cm

oralig'ida bo'lishi lozim ekan.

Tuproqning zichligi va tortishga qarshilik g'altakmolaning diametri 15 cm dan 30 cm gacha ortishi bilan 6 km/h harakat tezligida mos ravishda 1,89 g/cm<sup>3</sup> dan 1,68 g/cm<sup>3</sup> gacha va 209 N dan 179 N gacha, 8 km/h tezlikda esa mos ravishda 1,83 dan 1,65 g/cm<sup>3</sup> gacha va 236 N dan 202 kN/m gacha kamayib brogan (8-rasmga qaralsin). Buning asosiy sababi shuki, g'altakmolaning diametri ortgan sari g'altakmolaning tuproq bilan o'zaro ta'sirlashishda bo'lgan yuzasi ortib boradi va buning natijasida u tomonidan tuproqqa beriladigan bosim kamayadi.




1)  $V=6$  km/h bo'lganda; 2)  $V=8$  km/h bo'lganda

**8-rasm. G'altakmolaning diametri ( $D_{g'}$ ) ni tuproqning zichligi ( $\rho$ ) va g'altakmolaning tortishga qarshiligi ( $R$ ) ga bog'liq ravishda o'zgarish grafiklari**

Agregatning harakat tezligi 6,0 km/h dan 8,0 km/h gacha ortganda tuproqning zichligi 0,03-0,06 g/cm<sup>3</sup> ga kamaygan va tortishga qarshilik 23-27 N ga ortgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, tuproqning zichligi talab darajasida bo'lishi va qurilmaning tortishga qarshiligi minimal bo'lishi uchun g'altakmolaning 20 cm bo'lishi lozim.



1)  $V=6$  km/h bo'lganda; 2)  $V=8$  km/h bo'lganda

**9-rasm. G'altakmolaga beriladigan solishtirma tik yuklanish ( $Q_{g'}$ ) ni tuproqning zichligi ( $\rho$ ) va g'altakmolaning tortishga qarshiligi ( $R$ ) ga bog'liq ravishda o'zgarish grafiklari**


Keltirilgan grafik bog'liqliklardan shuni ta'kidlash mumkinki (9-rasm), tuproqning zichligi va tortishga qarshilik har ikkala tezlikda ham tik yuklanish ortishi bilan ortgan: bunda zichlik 6 va 8 km/h harakat tezliklarida mos ravishda 1,61 g/cm<sup>3</sup> dan 1,95 g/cm<sup>3</sup> gacha va 1,53 g/cm<sup>3</sup> dan 1,89 g/cm<sup>3</sup> gacha, tortishga qarshilik esa mos

ravishda 188 N dan 218 N gacha va 197 N dan 227 N gacha deyarli to'g'ri chiziq qonuniyati bo'yicha ortgan. Tik yuklanishning ortishi zichligini hamda tortishga qarshilikni ortishi asosan g'altakmola tomonidan ortishi bilan ortgan: bunda zichlik 6 va 8 km/h harakat tezliklarida mos ravishda 1,61 g/cm<sup>3</sup> dan 1,95 g/cm<sup>3</sup> gacha va 1,53 g/cm<sup>3</sup> dan 1,89 g/cm<sup>3</sup> gacha, tortishga qarshilik esa mos ravishda 188 N dan 218 N gacha va 197 N dan 227 N gacha deyarli to'g'ri chiziq qonuniyati bo'yicha ortgan. Tik yuklanishning ortishi zichligini hamda tortishga qarshilikni ortishi asosan g'altakmola tomonidan tuproqda hosil qilinadigan bosim va kuchlanishlarni o'sishi hisobiga yuz beradi.

Ishlab chiqilgan dastlabki talablar bo'yicha tuproq zichligi 1,75 g/cm<sup>3</sup> kam bo'lmasligi lozim. Ushbu rasmlarda keltirilgan ma'lumotlar bo'yicha bunga minimal energiya sarflagan holda erishish uchun ishlab chiqilgan g'altakmolaga beriladigan tik yuklanish 450-500 N oralig'ida bo'lishi lozim. Bu natijalar nazariy tadqiqotlarda olingan natijalarga mos keladi.

10-rasmda keltirilgan grafik bog'liqliklar shuni ko'rsatadiki, takomillashtirilgan ariqqazgich tayanch tekisligidan pastki osish nuqtalarigacha bo'lgan tik masofa ortishi bilan ariq chuqurligi ortib borgan, uni o'rtacha kvadratik chetlanishi esa kamaygan, ya'ni bu masofa 55 cm dan 75 cm gacha ortganda ariq chuqurligi 6 va 8 km/h tezliklarda mos ravishda 28,2 cm dan 32,8 cm gacha, 27,8 cm dan 32,6 cm gacha ortgan, uning o'rtacha kvadratik chetlanishi esa ±1,71 cm dan ±1,08 cm gacha va ±1,79 cm dan ±1,11 cm gacha kamaygan.

Takomillashtirilgan ariqqazgich tayanch tekisligidan osish qurilmasining pastki osish nuqtalarigacha bo'lgan tik masofa 60 cm dan kichik bo'lganda tajribaviy ariqqazgich belgilangan chuqurlikka botmadi, ya'ni ariq chuqurligi belgilangan 30 cm dan kam bo'ldi, 60 cm va undan katta bo'lganda esa takomillashtirilgan ariqqazgich belgilangan chuqurlikka botib va tayanch g'ildirakka tayanib ishladi.



1.  $H_a=f(H_1)$ ; 2.  $\pm\sigma=f(H_1)$   
 a)  $V=6$  km/h bo'lganda; b)  $V=8$  km/h bo'lganda  
 1)  $V=6$  km/h bo'lganda;  
 2)  $V=8$  km/h bo'lganda

**10-rasm. Ariqqazgichning tayanch tekisligidan osish qurilmasining pastki osish nuqtalarigacha bo'lgan tik masofa ( $H_1$ )ni ariq chuqurligi ( $H_a$ ), uning o'rtacha kvadratik chetlanishi ( $\pm\sigma$ ) hamda ariqqazgichning tortishga qarshiligi ( $R$ )ga bog'liq ravishda o'zgarish grafiklari**

Takomillashtirilgan ariqqazgich tayanch tekisligidan osish qurilmasining pastki osish nuqtalarigacha bo'lgan tik masofa 55 cm dan 75 cm ortganda, uning tortishga qarshiligi ortgan, ya'ni harakat tezligi 6 km/h bo'lganda 9,84 kN dan 11,24 kN ga ortgan, 8 km/h bo'lganda 10,80 kN dan 11,24 kN ortgan. Buni takomillashtirilgan ariqqazgich tayanch tekisligidan osish qurilmasining pastki osish nuqtalarigacha bo'lgan tik masofa ortishi bilan ariqqazgichning yurish chuqurligi ortishi hamda

tayanch g'ildiraklarga tushayotgan bosim kuchini ortishi bilan izohlash mumkin.

Demak, takomillashtirilgan muvaqqat ariqqazgich kam energiya sarflagan holda belgilangan talab darajasida ariq qazishi uchun uning tayanch tekisligidan osish qurilmasining pastki osish nuqtalarigacha bo'lgan tik masofa kamida 60 cm bo'lishi lozim ekan.

Takomillashtirilgan muvaqqat ariqqazgichga o'rnatilgan ariq tubini zichlaydigan g'altakmolaning nazariy va bir omilli eksperimentlarda o'rganilgan parametrlarining maqbul qiymatlarini aniqlash uchun mos ravishda Xartli-3 rejasi bo'yicha ko'p omilli eksperimentlar o'tkazildi.

Xartli-3 rejasi bo'yicha g'altakmolaning diametri ( $X_1$ ), g'altakmolaga beriladigan tik bosim kuchi ( $X_2$ ) va agregat harakat tezligi ( $X_3$ ) ni tuproqning zichlanishi ( $Y_1$ ) va g'altakmolaning tortishga qarshiligi ( $Y_2$ ) ga ta'siri o'rganildi va ularni adekvat ifodalovchi quyidagi regressiya tenglamalari olindi.

$$Y_1=1,737-0,078X_1+0,125X_2-0,032X_3+0,0432X_1^2-0,0033X_1X_3-0,042X_2^2+0,007X_2X_3-0,017X_3^2; \quad (12)$$

$$Y_2=188,333-14X_1+8,833X_2+8,5X_3+9X_1^2-23,333X_1X_2-0,833X_1X_3+8,167X_2^2+3,167X_2X_3+14,5X_3^2; \quad (13)$$

(12)-(13) regressiya tenglamalarining yechimlari 6,0-8,0 km/h ish tezliklarda kam energiya sarflagan holda talab darajadagi ish sifatini ta'minlashi uchun g'altakmolaning diametri 21,51-20,88 cm, unga beriladigan tik bosim kuchi 518,73-487,58 N oralig'ida bo'lishi lozimligini ko'rsatdi.

Omillarning ushbu qiymatlarida tuproning zichligi 1,71-1,72 g/cm<sup>3</sup>, g'altakmolaning tortishga qarshiligi 487,58-518,73 N ni tashkil etdi.

Dissertatsiyaning «**Qurilmaning xo'jalik sinovlarini o'tkazish va iqtisodiy ko'rsatkichlarini aniqlash**» deb nomlangan to'rtinchi bobida takomillashtirilgan muvaqqat ariqqazgich tajriba nusxasining qisqacha texnik tavsifi, dala sinovlari natijalari va uning iqtisodiy samaradorligi keltirilgan.

Sinovlarda ishlab chiqilgan takomillashtirilgan muvaqqat ariqqazgichning tajriba nusxasi belgilangan texnologik jarayonni ishonchli bajardi va uning ish ko'rsatkichlari unga qo'yilgan talablarga to'liq mos bo'ldi.

Texnik iqtisodiy ko'rsatkichlarni aniqlash bo'yicha o'tkazilgan hisoblar ishlab chiqilgan diskli pichoqlar va g'altakmola bilan jihozlangan takomillashtirilgan muvaqqat ariqqazgich qo'llanilganda bir gektar maydonda muvaqqat ariq qazish uchun sarflanadigan (ekspluatatsion) xarajatlarni 5,41 foizga, mehnat sarfini 7,84 foizga kamayishini ko'rsatdi. Yillik iqtisodiy samara takomillashtirilgan muvaqqat ariqqazgichga 22 409 048,48 UZS ni tashkil etadi.

## XULOSA

«Muvaqqat ariqqazgichni takomillashtirish va parametrlarini asoslash» mavzusidagi falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Qishloq xo'jaligi ekinlarini tuproq ustidan sug'orishda diskli pichoqlar va g'altakmola bilan takomillashtirilgan muvaqqat ariqqazgichdan foydalanish tuproqning uvalanish sifatini yaxshilash hisobiga suvni ushlab qobiliyati yuqori bo'lgan dambalar hosil qilish, ariq tubini talablar darajasida zichlash hamda

ariqqazgichning tortishga qarshiligi kamayishi hisobiga energiya va resurs tejamkorlikni ta'minlash imkonini beradi.

2. Takomillashtirilgan muvaqqat ariqqazgich diskli pichog'ining diametri 50 cm, qalinligi 4 mm, o'tkirlanish burchagi  $25^\circ$  bo'lishi ariqqazgichning belgilangan chuqurlikka botib barqaror ishlashini ta'minlaydi.

3. Takomillashtirilgan ariqqazgich g'altakmolaning diametri 20 cm, g'altakmolaning qamrash kengligini 30 cm, g'altakmolaga beriladigan tik yuklanish 461,8-520,3 N oralig'ida bo'lishi ariq tubini talablar darajasida zichlanishi ta'minlaydi.

4. Takomillashtirilgan ariqqazgichning tayanch tekisligidan uning pastki osish nuqtalarigacha bo'lgan tik masofani 65 cm bo'lishi ariqqazgichning belgilangan qazish chuqurligida tekis harakatini ta'minlaydi.

5. Takomillashtirilgan ariqqazgich diskli pichoqlarining tortishga qarshiligi 648,98-731,21 N, g'altakmolani 101,76-112,34 N hamda ariqqazgich lemexlari va ag'dargichlarining tortishga qarshiliklari mos ravishda 7933,5-8437,5 N ni tashkil etdi.

6. 6-8 km/h harakat tezliklarida takomillashtirilgan muvaqqat ariqqazgich diskli pichog'ining diametri 450-500 mm, ular orasidagi ko'ndalang masofa 17,5-20 cm oralig'ida bo'lishi kam energiya sarflagan holda talab darajadagi ish sifatini ta'minlash imkonini beradi.

7. O'tkazilgan tadqiqotlar asosida asoslangan parametrlarga ega bo'lgan diskli pichoqlar va g'altakmola bilan jihozlangan takomillashtirilgan muvaqqat ariqqazgich qo'llanilganda bir gektar maydonda muvaqqat ariq qazish uchun sarflanadigan (ekspluatatsion) xarajatlarni 5,41 foizga, mehnat sarfini 17,02 kishi-soatga kamaytirish va buning evaziga bitta takomillashtirilgan muvaqqat ariqqazgichdan yiliga 22 409 048,48 so'm iqtisodiy samara olish imkonini beradi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.06.2020.Т.111.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ КАРШИНСКОМ  
ИНЖЕНЕРНО-ЭКОНОМИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ**

---

**БУХАРСКИЙ ИНСТИТУТ УПРАВЛЕНИЯ ПРИРОДНЫМИ  
РЕСУРСАМИ НАЦИОНАЛЬНОГО ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОГО  
УНИВЕРСИТЕТА «ТАШКЕНТСКОГО ИНСТИТУТА ИНЖЕНЕРОВ  
ИРРИГАЦИИ И МЕХАНИЗАЦИИ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА»**

**РУЗИКУЛОВ ЖАСУР УКТАМ УГЛИ**

**УСОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ВРЕМЕННОГО КАНАВОКОПАТЕЛЯ И  
ОБОСНОВАНИЕ ЕГО ПАРАМЕТРОВ**

**05.07.01 - Сельскохозяйственные и мелиоративные машины. Механизация  
сельскохозяйственных и мелиоративных работ**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)  
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2023.2.PhD/T3739**

Диссертация выполнена в Бухарский институт управления природными ресурсами национального исследовательского университета «Ташкентского института инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства».

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице по адресу [www.qmii.uz](http://www.qmii.uz) и Информационном образовательном портале «ZiyoNet» ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)).

**Научный руководитель::**

**Имамов Шавкат Жахонович**  
доктор технических наук, профессор

**Официальные оппоненты:**

**Мусурмонов Аззам Турдиевич**  
доктор технических наук, профессор

**Гаффоров Хасан Равшанович**  
кандидат технических наук, доцент

**Ведущая организация:**

**Центр по сертификации и испытанию  
сельскохозяйственной техники и технологий  
при Министерстве сельского хозяйства РУз**

Защита диссертации состоится «\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2025 г. в \_\_\_ часов на заседании Научного совета PhD.03/30.06.2020.T.111.02 при Каршинском инженерно-экономическом институте (Адрес: 180100, г.Карши, ул. Мустакиллик, д. 225. Тел.: (+99875) 221-09-23, факс: (+99875) 224-13-95, e-mail: [qmii@qmii.uz](mailto:qmii@qmii.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каршинского инженерно-экономического института (регистрационный номер \_\_\_). (Адрес: 180100, г.Карши, ул. Мустакиллик, д.225. Тел.: (+99875) 221-09-23, факс: (+99875) 224-13-95, e-mail: [qmii@qmii.uz](mailto:qmii@qmii.uz)).

Автореферат диссертации разослан «\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2025 года.

(Протокол рассылки № \_\_\_ «\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2025 года).

**Ф.М.Маматов**

Председатель научного совета по  
присуждению ученых степеней,  
д.т.н., профессор

**Д.Ш.Чуянов**

Ученый секретарь научного совета по  
присуждению ученых степеней,  
д.т.н., профессор

**Э.У.Эшдавлатов**

Председатель научного семинара при  
научном совете по присуждению ученых степеней,  
д.т.н., доцент

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В мире одно из ведущих мест занимает применение энергосберегающих и качественных машин и инструментов для рытья временных каналов. Если учесть, что «ежегодно во всем мире на более чем 1,87 миллиарда гектаров полей выкапывают временные каналы»<sup>1</sup>, необходимо внедрять при рытье временных каналов качественные, производительные и энергосберегающие машины и инструменты. В этом аспекте, особое значение имеет усовершенствованные каналокопатели с дисковыми ножами и катками.

В мире ведутся научно-исследовательские работы, направленные на разработку новых научно-технических решений энергосберегающих технологий рытья временных каналов для орошения сельскохозяйственных культур и каналокопателей, реализующих их с высоким качеством. В частности, можно показать работы в направлении обоснования технологических процессов и параметров временных каналокопателей. В связи с этим особое внимание уделено разработке усовершенствованного временного каналокопателя с дисковыми лопастями и катком, а также обоснованию его технологического процесса и параметров.

В целях обеспечения устойчивого развития сектора сельского хозяйства республики путем инновационного подхода в сельскохозяйственном производстве проводятся широкомасштабные мероприятия по техническим средствам и вооружений для ресурсосберегающей обработки почвы, позволяющих снизить трудозатраты и энергозатраты, повысить производительность труда, и достигаются определенные результаты. В стратегии развития сельского хозяйства Республики Узбекистан на 2020-2030 годы, намечены задачи, в частности, «...частные инвестиции для поддержки модернизации, диверсификации и устойчивого роста агропродовольственной цепи поставлены задачи сокращения государственного участия и внедрения механизмов повысить инвестиционную привлекательность, рациональное использование земельных и водных ресурсов, повышение производительности труда в фермерских хозяйствах, улучшение качества продукции...».<sup>2</sup>

При выполнении этих задач, в частности, важным является разработка энерго- и ресурсосберегающего временного каналокопателя с высоким качеством работы и производительностью при рытье временных каналов для орошения сельскохозяйственных культур, а также обоснование его параметров, обеспечивающих требуемое качество работы при низком энергопотреблении.

